



## INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARINI TIJORATLASHTIRISH TUSHUNCHASI

Durbek Islomov

*Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura bosqichi*  
*Intellektual mulk va axborot texnologiyalari yo'nalishi talabasi*  
[islomov.durbek1@gmail.com](mailto:islomov.durbek1@gmail.com)

Intellektual mulk sanoat korxonasi nomoddiy aktivlarining muhim tarkibiy qismidir. Intellektual aktivlarni tijoratlashtirish va samarali boshqarish intellektual kapitalning bozor raqobatbardoshligini oshirish uchun asosiy shartlaridan biridir. Intellektual mulk obyektlarini tijoratlashtirish har qanday sanoat korxonasining intellektual va innovatsion faoliyati va bunyodkorlik faoliyati samaradorligining asosidir. Mavjud amaliyotlar intellektual mulkdan tijorat maqsadlarida foydalanishni yoki boshqacha aytganda, intellektual mulk huquqlarini iqtisodiy muomalaga jalb qilishni ko'rsatadi, bunga ikki yo'l bilan erishish mumkin. "Intellektual mulkning yuqori darajada himoyalanganlik darajasi mamlakatning investitsion jozibadorligi va tashqi imidjini oshirishning muhim kafolati sanaladi"<sup>58</sup>.

Birinchisi, korxonaning iqtisodiy faoliyati davomida intellektual mahsulotdan foydalanish – Intellektual aktivlarni ichki kapitallashtirish strategiyasi. Ikkinchisi, intellektual mulk bozoriga kirish - intellektual mulkni tashqi yoki birgalikda tijoratlashtirish strategiyasi.

Intellektual mulk obyektlarining o'zining xususiyati, yaratilish jarayoni, ijtimoiy munosabatlar (fuqarolik muomalasi)ga tatbiq etilishi hamda muhofaza qilinishi nuqtai nazaridan farqlarini quyidagilarda ko'rish mumkin.

1. Sanoat mulki obyektlari (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi). Ushbu obyektlarning o'ziga xosligi ishlab chiqarishda qo'llanishligi hamda ularga doir mutlaq huquqlar patent bilan muhofaza qilinishida ko'rinadi.

2. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar obyektlari (adabiy, badiiy, va san'at asarlari, ijrolar va fonogrammalar). Bu kabi obyektlarning yaratilish doirasi va hajmi juda kengligi sababli ularga doir mutlaq huquqlar yaratilish fakti bilan belgilanadi va ro'yxatdan o'tkazilmay muhofaza qilinadi. Shuningdek, bunda muallif yoki huquq egasining o'z huquqlarini himoya qilish bo'yicha tashabbus bildirishi zarur hisoblanadi.

3. Individuallashtirish (shaxsiylashtirish) vositalari (tovar belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomlari, firma nomlari, domen nomlari). Bular da unga egalik qilayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan ijodiy faoliyat amalga oshirilmagan bo'lsada, biroq uning zahirida aynan tafakkur mahsuli bo'lgan obyekt bo'lishligi sababli intellektual mulk obyektlari qatoriga kiritish mumkin. Shuningdek, bu guruhda geografik ko'rsatkichlarni ham alohida qayd etish lozim. "Bugungi kunda an'anaviy ravishda qishloq va chekka hududlarda tayyorlanayotgan mahsulotlar nafaqat avloddan avlodga o'tib o'zining

<sup>58</sup> Юлдашов А. Интеллектуал мулк бўйича миллий стратегияларнинг аҳамияти ва бутунжаҳон интеллектуал мулк ташкилотининг бу борада тутган ўрни //Юрист ахборотномаси. – 2020. – Т. 1. – №. 2. – С. 53-59.



qiymatini oshirib bormoqda, balki ularga nisbatan “geografik ko‘rsatkich” orqali muhofazani qo‘llash ushbu mahsulotlarning bozor bahosini oshirish bilan birga tegishli hududlar iqtisodiyoti va ularni jahonga tanishtirishda muhim o‘rin tutmoqda.<sup>59</sup>”

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha obyektlarni birlashtirib turuvchi jihat bu ularning ega(lari)siga nisbatan bo‘lgan mutlaq huquqning mavjudligidir. Mutlaq huquq yaratilgan intellektual salohiyat natijasiga nisbatan egalik va undan foyda (daromad) olish bilan xarakterlanadi. Umuman olganda, intellektual mulk obyektlarining yuqoridagi tasnifidan kelib chiqib, mutaxassislar tomonidan mutlaq huquqqa nisbatan individuallashtirish vositalarini istisno etganda, ommaviy huquq va xususiy huquq qoidalari qo‘llaniladi.

Intellektual mulk ta‘rifiga kiradigan barcha ob‘ektlar bir qator xususiyatlar birlashtiradi:

nomoddiylik – ushbu ob‘ektlar u yoki bu moddiy shaklda namoyon bo‘lishi mumkin, ammo intellektual mulk sifatida shakl emas, balki ob‘ektning o‘zi tan olinadi va himoya qilinadi;

yangilik (originallik) – har bir yangi yaratilgan intellektual mulk ob‘ekti avval yaratilgan ob‘ektlarga – garchi ular qayta ishlangan yoki tarkibi o‘xshash mahsulot bo‘lsa ham – takrorlanmas (unikal) hisoblanadi;

sun‘iy yaratilganlik – intellektual mulk ob‘ekti har doim inson tomonidan yaratiladi, o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan tabiiy ob‘ektlar intellektual mulk ob‘ekti bo‘la olmaydi.

Bugungi kunda o‘zbekistonlik olimlar, ijodkorlar va biznes vakillari oldida turgan eng muhim masala aynan intellektual mulkni tijorlashtirish bilan bog‘liqdir. Yaratilgan intellektual mulk amaliyotga joriy etilmasa, u o‘zining to‘liq xususiyatlariga ega bo‘lmaydi. Ayniqsa, O‘zbekistonda davlat budjeti hisobidan yaratilgan yangi ishlanma va ixtirolarni tijorlashtirilmasligi eng katta muammolardan bo‘lib qolmoqda. Shu sababdan ham ushbu qo‘llanmada aynan tijorlashtirishning eng muhim jihatlari, ahamiyati va xorijiy tajriba bilan birga, intellektual mulkni qiymatini belgilashga doir baholash bilan bog‘liq jihatlar ham o‘rin olgan.

Intellektual mulkni tijorlashtirish deganda intellektual mulkdan foyda olish maqsadida undan amalda foydalanishni tashkil etishga qaratilgan strategik tadbirlar yig‘indisi tushuniladi. O‘zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuniga ko‘ra foyda olish maqsadida innovatsion faoliyat sub‘ektlari munosabatlarini tartibga soluvchi har xil turdagi shartnomalardan foydalangan holda yangi ishlanmalarni fuqarolik muomalasiga joriy etish jarayoni yangi ishlanmalarni tijorlashtirish hisoblanadi. Butunjahon Intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra intellektual mulkni tijorlashtirish – bu g‘oyalar, ixtirolar va innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash uchun mo‘ljallangan ularning muhofazasi, boshqaruvi, baholanishi, ishlanishi va qiymat-yaratilishini ta‘minlovchi davomiy harakatlar va chora-tadbirlardir.<sup>60</sup> WIPO ta‘rifida, intellektual mulkni tijorlashtirish “davomiy harakatlar va chora-tadbirlar” deb

<sup>59</sup> Юлдашов А. Географик кўрсаткич тушунчаси ва иктисодиётни мустахкамлашда унинг туган ўрни //Юрист ахборотномаси. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 249-257.

<sup>60</sup> WIPO Committee on Development and Intellectual Property (CDIP), Guide on Intellectual Property (IP) Commercialization, CDIP/16/INF/4, September 30, 2015, at 18



ta'riflangan, ya'ni innovatsion g'oya yaratilishidan boshlab ma'lum bir qiymat yaratilishigacha bo'lgan bosqich, jarayon sifatida talqin qilingan. Tijoratlash tirish o'zida intellektual mulk ob'ektlaridan (IMO) foydalanish, sotish yoki almashish orqali daromad olishga asoslangan mustaqil iqtisodiy munosabatlar doirasini ifoda etadi. Aksincha, intellektual mulk ob'ektidan yoki unga bo'lgan huquqlardan tijorat maqsadida foydalanmaslik nafaqat intellektual mulk egasining mustaqil ravishda tijoratlash tirishga imkoni mavjud emasligidan darak beradi, balki ishlab chiqarishni yangilash va ishlanmalar yaratish salohiyatiga ega bo'la turib raqobatga kirishish uchun ongli ravishda strategik qarorlar qabul qilishga jur'at qila olmaslik bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

Aslida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabrdagi PF-5544-son Farmoni bilan "2019–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish Strategiyasi" tasdiqlangan bo'lsada, unda intellektual mulk siyosatiga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligini ko'rish mumkin. Xususan, intellektual mulk ob'ektlarini baholash jarayoniga ustuvorlik berilgan holda, ularning muhofaza choralari, ekspertiza jarayoni yoki ularni tijoratlash tirish kabi muhim jihatlar qamrab olinmagan<sup>61</sup>.

Iqtisodiy nuqtai nazardan, tijoratlash tirish ixtiro yoki aqliy ijod natijalarini tijorat jihatidan foydali mahsulot, xizmat yoki faoliyatga aylantirish hisoblanadi. Tijoratlash tirish qo'shimcha ravishda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish (R&D), mahsulotni takomillashtirish (product developments), klinik sinovlar, tadqiqot natijalari bozorga olib chiqishdan oldin ishlab chiqarishni kengaytirish yo'llarini puxta ishlab chiqishni talab qilishi mumkin. Bu kabi qo'shimcha tadqiqotlar muhim hisoblanadi, chunki har qanday ixtirochi yoki ijodkor ham ijod namunalarini tijoratlash tirish uchun zarur resurslarga, ko'nikmalarga yoki tavakkalchiliklarni yengish ishtiyoqiga ega bo'lmasligi mumkin. Odatda, bu kabi tijoratlash tirish-oldi (bozor-oldi) tadqiqotlari bilan ilmiy- tadqiqot markazlari (ITMlar) shug'ullanadi.

### **Intellektual mulkni tijoratlash tirish imkoniyatlari**

*Intellektual mulk obyektlarini tijoratlash tirish nima beradi?*

minimal pul mablag'lari va tavakkalchiliklar bilan biznesni kengaytirish imkonini beradi;

yangi bozorlarni egallash, geografik qamrovni kengaytirishga yo'l ochib beradi;

ko'p sonli mijozlarga xizmat ko'rsatish imkonini beradi;

brend taniqliligini oshirishga ta'sir qiladi;

investitsiyalar, bir martalik to'lovlar, royalti va litsenziya to'lovlari orqali yangi pul oqimlarini shakllantirishga olib keladi;

savdo-sotiqni rivojlantirish, distribyutorlik kanallarini kengaytirish imkonini beradi;

biznes jarayonlarini standartlashtirish va legalizatsiyalashga keng yo'l ochib beradi.

*Intellektual mulk ob'ektlarini tijoratlash tirishning ustuvorligi shundan iboratki, u intellektual mulk egasi bo'lgan tadbirkorga qo'yidagi imkoniyatlarni taqdim etadi:*

<sup>61</sup> Тўракулова Н., Юлдашов А. Интеллектуал мулк ҳуқуқи ҳимоя қилиш механизмини такомиллаштиришда халқаро шартномаларнинг ўрни ва аҳамияти //Conferencea. – 2022. – С. 467-471.



korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxida qo'shimcha qiymatni hisobga olish;

litsenziya (litsenziyalash) sotuvidan qo'shimcha daromad olish;

intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mutlaq huquq realizatsiyasi hisobidan foyda olish;

intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan mutlaq huquqdan noqonuniy foydalanish natijasida yetkazilgan zararni qoplash.

*Intellektual mulk ob'ektlarini tijoratlashirishning amaliyotdagi ustuvorliklar quyidagilarda namoyon bo'ladi:*

a) intellektual mulk egalari intellektual mulk ob'ektlarini korxonada ustav kapitaliga kiritish orqali real pul mablag'larini jalb qilmasdan firma ta'sischi bo'lishlari mumkin;

b) intellektual mulkdan foydalanish huquqini o'tkazganlik uchun qo'shimcha daromad olish mumkin;

c) kredit olishda intellektual mulkdan garov sifatida foydalanish mumkin;

d) intellektual mulk tadbirkorni bozorga yangi mahsulotni olib kirish davrida raqobatchilardan, shuningdek insofsiz raqobatdan himoya qilishni ta'minlaydi;

e) intellektual mulk ishlab chiqarilayotgan mahsulotning yoki mashhur ishlab chiqaruvchi litsenziyasi bo'yicha bajarilayotgan ish (xizmat)ning huquqiy muhofazasi to'g'risida ma'lumot berishda reklama imijini yaratishga ko'maklashadi;

f) intellektual mulk nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi va intellektual mulk ob'ektini yaratish uchun qilingan xarajatlar miqdoriga soliq solish bazasini kamaytirish natijasida foyda solig'ining kamayishiga olib keladi;

g) intellektual mulk bo'yicha bitim patent, litsenziya yoki mualliflik shartnomasi shaklida rasmiylashtirilsa, qo'shimcha qiymat solig'ini kamaytirishga imkon beradi.<sup>62</sup>

<sup>62</sup> Intellectual Property Commercialization: Policy Options and Practical Instruments. United Nations, Geneva (Switzerland), 2011. <https://unece.org/fileadmin/DAM/ceci/publications/ip.pdf>